



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 131 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



AUDIT ISHI SIFATI DARAJASINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Qushmatov Otaxon Qurbonalievich

Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti "Audit" kafedrası PhD, katta o'qituvchi

Email: qushmatov_otaxon@tifi.uz

ORCID: 0000-0002-6776-7041

Annotatsiya: Mazkur maqolada audit ish sifatini nazorat qilish hamda baholash maqsadi, vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada auditorlik tekshiruvini o'tkazishda ish sifatining ichki nazoratini o'tkazish muammolari hamda ularni bartaraf etish yo'llari keltirilgan. Jumladan, auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish algoritmi ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan. Auditning o'tkazilishi chog'ida auditor ishi sifatini nazorat qilish omillari, kriteriyalari, shakllari va ulardagi tekshirish amallarining uslubiy masalalari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Ish sifatini tashqi nazorati, ish sifatini ichki nazorati, ekspert ishidan foydalanish, ichki standart; audit umumiy rejasi; audit dasturi.

Abstract: This article describes the purpose, objectives and features of monitoring and assessing the quality of audit work. The article also presents the problems of internal quality control of work during verification and ways to eliminate them. In particular, an algorithm for external quality control of the work of audit organizations has been developed and put into practice. Quality control of work of the auditor when carrying out audit of requirements of standards of audit and other normative documents regulating auditor activity is considered methodology questions.

Key words: External quality control of work, internal quality control of work, use of expert works, internal standard; overall audit plan; audit program.

Аннотация: В данной статье описаны цель, задачи и особенности контроля и оценки качества аудиторской работы. Также в статье представлены проблемы внутреннего контроля качества работы при проверке и пути их устранения. В частности, разработан и внедрен в практику алгоритм внешнего контроля качества работы аудиторских организаций. Рассматриваются вопросы методологии контроля качества работы аудитора при проведении аудита в соответствии с требованиями стандартов и других нормативных документов, регулирующих аудиторскую деятельность.

Ключевые слова: Внешний контроль качества работы, внутренний контроль качества работы, использование экспертных работ, внутренний стандарт; общий план аудита; программа аудита.

KIRISH

Bugungi kunda auditorlik faoliyati dunyodagi ko'pgina mamlakatlarda yuqori saviyaga ko'tarilgan. Auditorlik faoliyatini rivojlantirish uchun bir qancha qonunlar va standartlar ishlab chiqilgan. Auditor ish sifatini nazorat qilish tekshiruvning birinchi bosqichidir.

Auditorlik faoliyatining muhim tomonlaridan yana biri shundaki, u yillik buxgalteriya hisobotining haqqoniyligini tasdiqlab turib, o'z xulosasi bilan xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatiga mos sifat "belgisini" qo'yadi. Shu bilan birga foydalanuvchilar investitsion siyosatni aniqlash va kelajakda dividendlar olish ehtimolini baholash imkoniyatini beruvchi tadbirkorlik ekspertizasi amalga oshiriladi. Ayniqsa, auditorlar mijoz faoliyati rivojlanishini qisqa va uzoq muddatli prognozlash hisob-kitoblarini malakali baholashni o'rnini kamaytirmasliklari lozim. Auditorlik tashkilotlari, shu jumladan konsalting firmalari tarkibiga kiruvchi tashkilotlar ilmiy-texnika rivojlanish va boshqaruv darajasini oshirishni joriy etishga moslashgan. Shuning uchun auditorlik faoliyatining sifati muhim ahamiyat kasb etadi.

Sifat darajasining huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 21-mayda tasdiqlangan va kuchga kiritilgan 220-son "Audit sifatini nazorat qilish" Xalqaro audit standarti (XAS) hisoblanadi. Mazkur standart auditorlik tashkilotlarida sifat nazoratini ta'minlash tartibini belgilab, auditorlik tekshiruvlari hamda unga turdosh xizmatlar bajarilishida xalqaro talablarga rioya etilishini nazorat qilishni ko'zda tutadi. Ushbu hujjatda auditorlik faoliyatida tashkiliy choralar, uslublar va jarayonlar tizimini yo'lga qo'yish zarurligi alohida qayd etilgan.¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2021-yil 21-may). 220-son Xalqaro audit standarti — Audit sifatini nazorat qilish.



Bundan tashqari, xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, auditorlik sifatini oshirish uchun bir qator omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (IFAC) tomonidan 2020-yil 10-fevralda e'lon qilingan konsepsiyada sifatli auditni ta'minlashda beshta asosiy omil belgilab berilgan: to'g'ri jarayon, to'g'ri kadrlar, to'g'ri boshqaruv, to'g'ri tartibga solish va to'g'ri o'lchov. Bu yondashuvlar auditorlik faoliyatini samarali tashkil etishda, resurslardan oqilona foydalanishda va moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi.²

Har bir auditorlik tashkiloti ish sifati ustidan nazorat qilish tamoyillari va qoidalarini, shuningdek, ulardan foydalanish jarayonlarini ishlab chiqishi va qabul qilishi lozim. Bu esa auditning o'tkazilishi jarayonida tekshiruvning umum belgilangan andozalari bilan ziddiyatlarning yuzaga kelmasligi uchun zarurdir. Shu nuqtai nazardan, milliy me'yoriy-huquqiy bazani xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish nafaqat sifatni oshiradi, balki O'zbekiston auditorlik bozorining global maydonga integratsiyasini ham jadallashtiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Auditorlik faoliyatini sifat jihatdan nazorat qilish masalalari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar taklif etilgan. Xususan, O'zbekistonda auditorlik nazoratini tashkil etish, uning me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Egamov O. o'z tadqiqotlarida auditorlik faoliyatining rivojlanishida milliy qonunchilik va xalqaro standartlar o'rtasidagi uyg'unlikka e'tibor qaratib, ayniqsa, sifat nazoratida professional etik qoidalarining ahamiyatini ta'kidlaydi [1]. Vahobov A. auditorlik faoliyatining iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashdagi o'rnini haqida fikr yuritarkan, ichki va tashqi sifat nazoratining birgalikda ishlashi tizim samaradorligini oshirishini qayd etadi [2].

Xorijiy adabiyotlarda esa auditorlik nazoratining nazariy va amaliy jihatlarini keng tahlil qilingan. Masalan, Boynton, Johnson va Kell tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarda auditorlik sifatini baholashda riskga asoslangan nazorat tizimlari alohida o'rin tutadi [3]. Shuningdek, Arens va Loebbecke auditorlik faoliyatida mustaqillik va obyektivlikni sifat kafolati sifatida ko'rib chiqadi [4].

Xalqaro miqyosda IFAC (International Federation of Accountants) tomonidan ishlab chiqilgan Audit sifatini nazorat qilish (ISQC 1 va ISQC 2, 2020) standartlari auditorlik tashkilotlarida sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish va ularni samarali ishlatishni nazarda tutadi [5]. IAASB (International Auditing and Assurance Standards Board) esa "A Framework for Audit Quality" konsepsiyasi orqali sifat nazoratining asosiy komponentlarini belgilab bergan [6].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va tartibga solishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari auditorlik sohasida sifatni oshirish bo'yicha muhim islohotlar yo'nalishini belgilab bergan [7]. Mazkur qarorlar milliy qonunchilikni xalqaro amaliyot bilan uyg'unlashtirish, auditorlik xizmatlarining sifatini oshirish va bozor talablariga moslashishini ta'minlashga qaratilgan.

Yuqoridagi ilmiy manbalar sharhi shuni ko'rsatadiki, auditorlik faoliyatida sifat nazorati masalalari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Ichki va tashqi nazorat mexanizmlarining o'zaro uyg'unligi, professional etik qoidalarga qat'iy amal qilish hamda xalqaro standartlarning joriy etilishi auditorlik faoliyatining samaradorligi va ishonchligini oshiruvchi asosiy omillardan biridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi auditorlik ish sifatini nazorat qilishning ichki va tashqi mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda sifat nazoratining nazariy asoslari, xalqaro va milliy standartlar (ISQC 1, ISQC 2, XAS-220) hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asos qilib olindi. Maqolada qiyosiy tahlil, huquqiy-me'yoriy hujjatlarni o'rganish, tizimli va mantiqiy tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, auditorlik tashkilotlari faoliyatida ichki va tashqi nazorat tizimlarining samaradorligini baholash uchun amaliy kuzatuv va hujjatlar tahlili usullaridan foydalanildi. Statistik ma'lumotlar va ekspert xulosalari asosida nazorat jarayonining afzalliklari va kamchiliklari aniqlandi. Tadqiqot metodologiyasi sifat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Audit ish sifatini nazorat qilish bir necha shakllarda amalga oshiriladi:

- asosiy auditor tomonidan o'z assistentlari ishini nazorat qilish;
- auditorlik tashkiloti tomonidan auditor ishini nazorat qilish;
- tashqi nazorat.

2 IFAC – International Federation of Accountants. (2020-yil 10-fevral). Five Factors for High-Quality Audit.



Asosiy auditorning o'z yordamchi auditorlari ishini nazorat qilishi uning ish sifatini tekshirishda juda muhimdir. Asosiy auditor auditning o'tkazilishi jarayonida yordamchi auditorlar tomonidan bajarilayotgan ishlarni doimiy ravishda nazorat qilishi va yo'naltirib borishi kerak. Yordamchi auditorlar deganda asosiy auditordan kasbiy darajasi jihatidan farq qiluvchi xodimlar tushuniladi.

Sifat nazoratini ta'minlash borasidagi tashkiliy ishlar auditorlik tekshiruvdan oldin amalga oshirilishi kerak. Auditorlik tashkiloti xodimlarining, ya'ni auditorlar, ekspertlar, mutaxassislar malakasining yuqori darajada bo'lishini ta'minlashi zarur. Buning uchun birinchi navbatda kadrlarning maxsus protsedurasi ko'zda tutilishi lozim. Ayniqsa, ishga qabul qilish jarayonida malaka imtihonlarini o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Imtihonlar (masalan, buxgalteriya hisobi, soliq, audit savollari bo'yicha testlar) bir qancha bosqichlarda amalga oshirilishi lozim.

1-bosqichda ishga kiruvchilarning bilim darajasini aniqlash hamda unga mos ravishda lavozimni egallashi uchun test o'tkaziladi.

2-bosqichda aniq lavozim uchun bilim darajasini aniqlashtirish maqsadida mukammallashtirilgan testni o'tkazish mumkin. Imtihonlarni test shakli bilan birgalikda suhbat tarzida o'tkazish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagilar muhimdir:

– ishga kiruvchi auditorlik faoliyatining mohiyati, auditorlik tashkilotlari mijozlarning huquq va majburiyatlari deganda nimani tushunadi;

– nostandart vaziyatlarda ishga kiruvchining harakatlari;

– ishga kiruvchining nazariy va amaliy malakasi;

– yangi ish joyi bilan bog'liq kelajakdagi rejalari;

– xizmat safariga tayyorligi;

– xizmat majburiyatlarini bajarishga ta'sir etishi mumkin bo'lgan oilaviy sharoitlari qandayligi.

Sifat nazoratchilari tomonidan nafaqat audit sifatining ichki nazorati tizimi belgilarining mavjudligi, balki uning prinsiplari auditorlik tashkilotining oddiy xodimlariga yetkazilishi, mazkur tizimning amaliyotda qo'llanilishi ham tekshiriladi.

1-jadval. Auditni o'tkazishdagi ichki sifat nazoratining maqsad va tadbirlari³

Ichki sifat nazorati maqsadlari	Ichki sifat nazorati tadbirlari	Ichki hujjat, nazorat usullari (misollar)
O'tkazilayotgan auditorlik tekshiruvining ichki sifat nazorati	O'tkazilayotgan auditorlik tekshiruvining maqsad va vazifalariga muvofiq keluvchi ichki sifat nazorati tadbirlari	Auditga oid vazifalar bajarilishini muvofiqlashtiruvchi ichki standart; Auditorning ish hujjatlaridagi nazorat imzosi; Nazorat varaqalari yoki boshqa ish hujjatlari
Professional omilkorlikning tegishli darajasi	Auditorlar va ularga yuklatilgan ishni bajarayotgan auditor yordamchilarining professional omilkorligining tahlili	Ichki standart; Tekshiruv rahbarining auditorlik guruhini tayinlashga doir ish hujjatlaridagi imzosi
Ish kerakli darajada sinchiklab bajarilishiga bo'lgan ishonchni ta'minlash	Auditor yordamchilariga ish keraklicha sinchiklab va mazkur vaziyatlarda zarur bo'lgan professional omilkorlik bilan bajarilishi mumkin bo'lgan tarzda topshiriq beriladigan tartibni o'rnatish	Ichki standart; Audit rejasi; Audit dasturi
Auditorlik tadbirlari o'tkazish to'g'risidagi zarur axborot va ko'rsatmalar olish	Auditorlik tekshiruvi rahbari tomonidan ish topshirilayotgan auditorlar va auditor yordamchilariga tegishli tadbirlar o'tkazish haqida beriladigan aniq ko'rsatmalar; Xodimlarni auditdan o'tkazilayotgan shaxs faoliyatining xususiyati va buxgalteriya sohasida uchrashi mumkin bo'lgan muammolar haqida xabardor qilish	Xuddi shunday
Audit dasturi tuzilishi ustidan nazorat	Audit dasturi, shuningdek vaqt sarfi smetasi hamda auditning umumiy rejasini tuzish yo'li bilan auditor yordamchilari e'tiboriga audit o'tkazishga doir ko'rsatmalarni yetkazish	Xuddi shunday
Belgilangan nazorat ishlarining bajarilishi	Quyidagilarni aniqlash uchun auditning borishini nazorat qilish: auditor yordamchilari o'zlariga topshirilgan vazifalarni bajarish uchun zarur ko'nikma va bilimlarga egami; auditor yordamchilari audit o'tkazishga doir ko'rsatmalarni tushunadilarmi; ish audit dasturi va umumiy rejasiga muvofiq bajarilayaptimi	Ish hujjatlari



Muhim masalalarni ko'rib chiqish va baholash	Buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi muhim masalalarni ko'rib chiqish, ularning muhimligini baholash va audit dasturi hamda umumiy rejasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish	Audit rejas; Audit dasturi; Ish hujjatlari
Xodimlarning professional mulohazalaridagi tafovutlarni bartaraf etish	O'zaro og'zaki maslahatlar	Og'zaki maslahatlar
O'tkazilayotgan audit natijalari ustidan kerakli nazorat	Quyidagi masalalar bo'yicha bilimlari teng darajada bo'lgan auditor yordamchilari va xodimlar tomonidan bajarilayotgan ishlarni tekshirish: ish audit dasturiga muvofiq bajarilganmi; bajarilgan ish va olingan natijalar hujjatlarda kerakli darajada rasmiylashtirilganmi; auditning barcha muhim jihatlari auditorlik xulosalarida aks ettirilganmi; auditorlik tadbirlarining maqsadlariga erishilganmi; chiqarilgan xulosalar bajarilgan ishlar natijalariga mos keladimi, ular auditorlik fikrini tasdiqlaydimi	Ichki standart; Ish hujjatlari
Nazorat tadbirlarini to'la o'tkazilishini ta'minlash	O'z vaqtida tekshirish: audit dasturi va umumiy rejas; ichki nazorat vositalari xatari va ajralmas xatarlarning ahamiyati; tekshiruv natijasida olingan auditorlik dalillari va ular asosida chiqarilgan xulosaning hujjatlarda aks etishi; moliyaviy va buxgalteriya hisobotlari	Xuddi shunday
Audit sifatini auditorlik xulosasi taqdim etilguniga qadar tekshirish	Audit o'tkazishga oid ishlarning ushbu auditorlik tekshiruvda qatnashmagan auditorlar tomonidan tekshirilishi; Auditorlik xulosasi taqdim etilguniga qadar qo'shimcha nazorat tadbirlarining bajarilishi	Ichki standart; Mustaqillik va xolislik to'g'risida bayonnomalar; So'rov varaqalari

Mazkur tashqi sifat nazoratini o'tkazishga doir metodikaning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda auditorlik tashkilotida ichki sifat nazorati tizimiga katta e'tibor qaratiladi. Ishlab chiqilgan va auditorlik tashkilotlarida samarali foydalanilayotgan ichki sifat nazorati tizimi o'tkazilayotgan auditorlik tekshiruvlari sifatini ta'minlashda asosiy omil bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda suhbatga malakali psixologlarni taklif qilish ham maqsadlidir. Har bir mutaxassis uchun oldingi ish malakasidan qat'i nazar sinov muddatini berishi lozim. Chunki ushbu tashkilot uchun uning malakasi muhim ahamiyat kasb etmasligi mumkin. Bulardan tashqari tashkilotda xodimlarning malakasini oshirish maqsadida qayta attestatsiyalashning doimiy ravishda amal qiluvchi tizimi bo'lishi lozim. Tashkilotda ichki seminarlarning tematikasi va uni o'tkazish grafigi tasdiqlangan bo'lishi lozim. Xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha ishlar puxta rejalashtirilgan va yaxshi tashkil etilgan bo'lishi darkor. Kichikroq tashkilotlarda bunday ishlar bir xodimga, katta tashkilotlarda esa maxsus bo'linmaga yuklatilgan bo'ladi. Amaliyotni ko'rsatishicha, g'arb auditorlik tashkilotlarida ichki firma seminarlarini o'tkazish va unga tayyorgarlik ko'rish tashkilot xodimlarining majburiyatlari hisoblanadi. Bunday ishlarning mukammalligi va sifati xizmat zinapoyalari bo'yicha ko'tarilishda e'tiborga olinadi. Shuning uchun barcha xodimlar bunga puxta tayyorlanadilar. Avval mutaxassis tematikasini va qaysi guruh tinglovchilari uchun mo'ljallangan ekanligini e'lon qiladi. Tematika firma rahbariyati tomonidan tasdiqlanganidan so'ng mutaxassis o'qituvchi va tinglovchilar uchun materiallar tanlaydi va ularni kerakli bo'limga taqdim etadi. Ana shu jarayonlarning barchasi amalga oshirilgandan so'ng seminar o'tkaziladi.

Auditorlik tashkilotlari ishi sifati tashqi nazoratining obyekt sifati auditorlik tashkilotlari faoliyatining belgilanishi audit ish sifatini nazorat qilish mezonlarini aniqlash hamda auditorlik tekshiruv va turdosh xizmatlarning ko'rsatilishida audit standartlarining va O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tartibga solib turuvchi boshqa normativ hujjatlar talablariga rioya etilishiga qat'iy asos bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, audit ish sifatini tekshirishda qo'llaniladigan tashkiliy chora-tadbirlar, uslublar va tartib-taomillar tizimini aniq va to'liq yoritib berishga zamin yaratgan. Buning natijasida auditorlik tashkilotlari tomonidan ish sifatini nazorat qilish prinsiplari va qoidalari, ularni qo'llash tartib-taomillari ishlab chiqilgan, shuningdek audit jarayonida tekshiruvning umumqabul qilingan standartlari bilan qarama-qarshiliklar yuzaga kelmasligining oldi olingan.

Joriy nazoratni olib boruvchi professional xodimlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:


Yuklatilgan topshiriqlarga ijrochilarning bilim va malakasi yetarilishini tekshiradi;

Yuklatilgan topshiriqlarni ijrochilarga tushunarli ekanligini tekshiradi;

Bajarilayotgan ishlar auditning umumiy rejas va dasturiga muvofiqligini aniqlaydi;



Audit jarayonida aniqlangan, buxgalteriya hisobi va audit yuzasidan kelib chiqqan muammolarni aniqlash. Bajarilgan ishlar natijalarini tekshirish har bir ijrochi va xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Ish natijalari tekshiruvini amalga oshiruvchi xodimlar tekshirilgan ish hujjatlariga o'zlarining imzolari yoki shartli belgilarini qo'yishlari lozim. Zarur hollarda esa tekshiruvchilar tekshiriluvchi harakatlariga baho, tavsiya yoki izohlar berishi mumkin. Auditorlik tashkiloti rahbari bajarilgan ish natijalari tekshiruvini faqatgina audit o'tkazgan guruh xodimlariga emas, balki boshqa zarur malakaga ega bo'lgan mutaxassislariga ham topshirishi mumkin. Auditorlik tashkilotidagi bunday mustaqil va parallel tekshiruv, yirik va murakkab xo'jalik yurituvchi subyekt audit sharoitida tavsiya etiladi.



1-rasm. Auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish algoritmi.

Mazkur algoritmning qo'llanilishi auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish samaradorligini oshirishga va muvofiqlashtirishga xizmat qilgan. Vakolatli organlar tomonidan tashqi sifat nazoratini o'tkazish jarayonida qulayliklar va yengilliklar yaratilishiga erishilgan. Shuningdek, auditorlik tashkilotining tashqi sifat nazorati xarajatlarini minimallashtirishga hamda auditorlik tashkilotida usullar va tashkiliy tuzilmaning samarali ishlashini ta'minlash uchun axborotlarni maqsadli tahlil qilishga xizmat qilgan.

Auditorlik tashkilotlariga qulaylik va yengilliklar yaratish maqsadida bir qator yangi normalar kiritildi. Jumladan, auditorlik tashkilotlarining ustav kapitali miqdoriga bo'lgan talab bekor qilindi. Ustav fondi (ustav kapitali) auditorlik tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalanadigan mol-mulkdan, shu jumladan, pul mablag'laridan shakllantiriladi. Tashkilot o'z faoliyatini amalga oshirishda mustaqil bo'lib, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan tashkil etilishi mumkin emas. Unda asosiy ish joyi hisoblangan kamida to'rt nafar auditor bo'lishi, filialining rahbari esa, albatta, auditor bo'lishi kerak. Tadbirkorlik subyektlarining yagona davlat reestriga kiritilgan sanadan e'tiboran uch oy davomida u haqidagi ma'lumotlar Auditorlik tashkilotlari reestriga kiritilmagan tijorat tashkiloti o'z nomida "auditorlik tashkiloti" degan so'z birikmasidan foydalanishga haqli emas. Qonunga ko'ra, xalqaro amaliyot asosida auditorlik xizmatlarining tarkibi aniqlandi. Aynan shunday xizmat turlari MDH mamlakatlari qonun hujjatlarida va auditning xalqaro standartlarida mavjud. Munozara Auditorlik faoliyati sifatini nazorat qilish tizimining tamoyillari, 55 ta mamlakatni, jumladan MDH davlatlari ichidan Rossiya Federatsiyasini birlashtirgan Xalqaro mustaqil auditorlarni tartibga soluvchilar forumi IFIAR tomonidan ham e'lon qilingan [8.3]. IFIAR ning asosiy prinsiplari butun dunyo bo'ylab auditorlik faoliyati ustidan samarali mustaqil nazoratni rivojlantirishga qaratilgan va IFIARning 11 asosiy tamoyillari auditni boshqarish, sifat nazorati va audit tizimining samaradorligi uchun asos yaratadi, ulardan ba'zilari:

auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi organlar o'z faoliyatida mustaqil bo'lishi kerak. Mustaqillik deganda tartibga soluvchi faoliyatni amalga oshirish, shuningdek, tartibga solinadigan shaxslarning tashqi aralashuvsiz qarorlar qabul qilish va amalga oshirish qobiliyati tushuniladi;



audit regulyatorlari, hech bo'lmaganda, ijtimoiy ahamiyatga ega tashkilotlarni amaldagi kasbiy standartlar, mustaqillik talablar va boshqa qonunlar, qoidalar va qoidalarga muvofiqligini baholash uchun auditorlik tashkilotlarini vaqti-vaqti bilan tekshiruvdan o'tkazishi kerak.

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi (keyingi o'rinlarda Birlashgan Qirollik deb yuritiladi) ko'p yillik mustaqil nazorat tajribasiga ega davlatdir. Hozirgi vaqtda FRC auditorlik faoliyati sohasida mustaqil nazoratni ta'minlaydigan organda [8.4] o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Auditor ishi sifatini umumiy nazorat qilish quyidagilarga: auditorlarning ma'lum shaxsiy xususiyatlariga (halollik, ob'ektivlik, mustaqillik, professionallik, kompetentlilik), auditorlik guruhi a'zolari o'rtasida ishlarning asosli taqsimlanganligiga; sifat standartlariga rioya qilinishi bo'yicha auditorlarning ishlari ustidan nazoratga; audit tashkilotlaridagi ish sifatini ichki nazorat qilish siyosati va amallarining samaradorligi ustidan nazorat o'rnatilishiga asoslanadi. Auditor ishi sifatini yuqorida keltirilgan nazorati masalalari uning dastlabki, joriy va keyingi nazoratini tashkil etish bilan ta'minlashi lozim. Amalda dastlabki nazorat auditorlar va auditorlik tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish va litsenziyalash bosqichida bajariladi. Joriy nazorat ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: alohida auditorlik tekshiruvlarini joriy nazorat qilish va auditning umumiy nazorat qilish. Auditor ishi sifatini keyingi nazorati tashqi nazorat masalalari orqali amalga oshiriladi. Auditor ishi sifatini nazorat qilishni tashkil etish yo'nalishlari quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi: ishi sifatini nazorat kriteriyalari; nazorat yo'nalishlari; nazorat shakllari. Auditor ishi sifatini nazoratining asosiy kriteriyalariga O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun me'yorlari; O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyatini tashkil etish shartlari va litsenziyalash talabnomalari; Professional axloq qoidalari; xalqaro audit standartlari talablarini keltirish mumkin. Auditor ishi sifatini nazorat yo'nalishlariga alohida auditorlik tekshiruvlarini nazorat qilish va umumiy sifat nazorati amallari kiradi. Alohida auditorlik tekshiruvlarini nazorat qilish bu auditorga qonun hujjatlarda belgilangan mustaqillik va erkinlik vakolatlarini berilishi, auditorlar ishini joriy nazoratini kuzatuvi, auditor ishini standartlarga muvofiq bajarilishi tekshirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvlari va auditorlik xizmatlarini ko'rsatadi, shartnoma asosida ish olib boradi. Shunday qilib, auditorlik tashkilotlarining ichki va tashqi ish sifatini nazorat qilish va baholashda qo'llaniladigan nazorat amallarini o'rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Qonunda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish tartibi bayon qilingan. Unda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olishga yo'naltirilgan va audit mustaqilligini ta'minlovchi auditorlik tekshiruvini o'tkazishdagi cheklovlar sanab o'tildi. Xususan, ketma-ket yetti yildan ko'proq ayni bir xo'jalik yurituvchi subyektning auditorlik tekshiruvini o'tkazishga haqli emasligi bo'yicha taklif berilgan.

Auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish algoritmi ishlab chiqilgan hamda amaliyotga qo'llash bo'yicha taklif berilgan. Mazkur algoritmnini qo'llash natijasida auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish jarayonida yuzaga keladigan nomuvofiqliklarni oldini olishga xizmat qilgan.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonida ichki sifat nazoratining maqsadi hamda bajariladigan ishlar ketma-ketligi ishlab chiqilgan. Mazkur ishchi hujjatning qo'llanilishi natijasida auditorlik tekshiruv jarayonida bosh auditorning o'z qo'l ostidagi auditorlar va yordamchi auditorlarini ishlarini nazorat qilishdagi bajariladigan nazorat tadbirlarini bajarishlarini yengillashtirishga hamda mazkur nazorat tadbirlarining samarali bajarilishiga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 25.02.2021 y. O'RQ-677-son "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 10.11.2020 y. qabul qilingan, Senat tomonidan 05.02.2021 y. ma'qullangan).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2018 y. PQ-3946-son "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.08.2021 y. PQ-5210-son "Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 y. PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.04.2022 y. 171-son Qarori "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida".
6. Moliya vazirining 24.09.2021 y. 56-son Buyrug'i "Auditorning malaka sertifikatini malaka imtihonini topshirmasdan berish va muddatini uzaytirish uchun asos bo'ladigan buxgalterlarning xalqaro sertifikatlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" (Adliya vazirligi tomonidan 29.09.2021 y. 3321-son bilan ro'yxatga olingan).
7. Sifat nazorati, audit, ko'rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari. Tarjima. UBAMA, 2014.
8. Kevorkova J.A. Mejdunarodnye standarty audita. Pod redaktsiyey. – M.: Yurayt, 2016. – 458 s.
9. Internet manbalari:



10. https://www.abbreviationfinder.org/ru/acronyms/sox_sarbanes-oxley-act-of-2002.html
11. <http://base.garant.ru/71364274/>
12. <https://www.ifiar.org/>
13. <https://www.frc.org.uk/>
14. https://www.ifac.org/system/files/meetings/files/6086_0.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
